



YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA BANKLARNING ROLI

PhD Karimov Shamsiddin Akram o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish
va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi*

ORCID: 0009-0006-3233-3602

Leo_SHK96@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bugungi kunda yuzaga kelayotgan global iqlim o'zgarishi natijasida yashil iqtisodiyotga o'tish qanchalik muhim ekanligi keltirib o'tilgan. Shuningdek, ekologik va ijtimoiy muammolar sababli yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor vazifalari hamda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarning rolini oshirish masallari va banklarda ekologik va ijtimoiy risklar va ularni baholash, yashil kreditlar, yashil obligatsiyalarni kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *yashil iqtisodiyot, barqaror iqtisodiy rivojlanish, yashil o'sish, bank, yashil banklar, yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar, ekologik risk, ijtimoiy risk, risklarni baholash va boshqarish.*

РОЛЬ БАНКОВ В РАЗВИТИИ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ

PhD Каримов Шамсиддин Акрам угли

*Комитет по развитию конкуренции и
защите прав потребителей*

Аннотация. *В данной статье показано, насколько важен переход к зеленой экономике в результате глобального изменения климата. Также в связи с экологическими и социальными проблемами представлены приоритетные задачи развития зеленой экономики и вопросы повышения роли банков в развитии зеленой экономики, экологические и социальные риски в банках и их оценка, зеленые кредиты, расширение зеленых облигаций.*

Ключевые слова: *зеленая экономика, устойчивое экономическое развитие, зеленый рост, банковское дело, зеленые банки, зеленые кредиты, зеленые облигации, экологический риск, социальный риск, оценка и управление рисками.*

THE ROLE OF BANKS IN THE DEVELOPMENT OF THE GREEN ECONOMY

PhD Karimov Shamsiddin Akram ugli

*Competition promotion and consumer
protection committee*

Abstract. *This article shows how important it is to transition to a green economy as a result of global climate change. Also, due to environmental and social problems, the priority tasks of green economy development and issues of increasing the role of banks in the development of green economy, environmental and social risks in banks and their assessment, green loans, green bonds expansion are presented.*

Key words: *green economy, sustainable economic development, green growth, banking, green banks, green loans, green bonds, environmental risk, social risk, risk assessment and management.*

Kirish.

Bugungi kunda global iqlim o'zgarishi, isish, tabiatning ifloslanishi, zaharli gazlar, bir so'z bilan aytganda tirik mavjudodlar hayotiga zarar yetkazuvchi barcha ekologik hamda ijtimoiy unsurlar insoniyatning faoliyati mahsuli deb aytishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BAAning Dubay shahrida bo'lib o'tgan BMTning iqlim o'zgarishiga bag'ishlangan 2023-yilgi sammitida ham "Hozirgi davrda iqlim muammolari jahondagi barqaror rivojlanish yo'lida eng asosiy tahdidga aylanib ulgurdi. Bu xavf-xatarlar hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta'sir ko'rsatmoqda".

Shuningdek, "...bu global xavflar keng mintaqamizda o'zining xatarli nuqtasiga yetib kelmoqda", (Sammit, 2023) deya ta'kidlab o'tdi. Bu esa bugungi kunda mamlakatimizda ham dolzarb ahamiyatga ega ekanligi hamda mazkur yo'nalishda kechiktirib bo'lmas qator ishlar amalga oshirish zarurligini anglatadi.

Adabiyotlar sharhi.

Bugungi kunda "yashil iqtisodiyot" atamasi xalqaro maydonda keng tarqalmoqda. Yashil iqtisodiyotga olimlar tomonidan turlicha ta'riflab o'tilgan.

Amerikalik ekolog va iqtisodchi Herman Edvard "yashil iqtisodiyotning maqsadi iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishdir" (Herman, 1994) deya ta'kidlagan.

Amerikalik/avstraliyalik ekolog iqtisodchi olim Robert Costanza (2016) esa ekologik iqtisodiyot sohasida taniqli olim bo'lib, iqtisodiy tizimlarni ekologik tizimlar bilan integratsiya qilish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borgan. U yashil iqtisodiyotni "ijtimoiy farovonlik va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun mo'ljallangan iqtisodiy model" deb ta'riflagan.

Bag'dod universiteti professori Suaad Hadi Hassan Al-Taai (2021) yashil iqtisodiyotning eng muhim maqsadlaridan biri bu yashil iqtisodiyotga to'sqinlik qiladigan va unga erishadigan siyosat va qoidalarni isloh qilish zarurati hisoblanishi bo'yicha fikrlarini keltirib o'tgan.

"Yashil iqtisodiyot" tushunchasining nisbatan to'liq ta'rifi UNEP tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, "yashil iqtisodiyot" – bu "insonlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirishga olib keluvchi iqtisodiyotdir" (Shtayner, 2011).

Yashil iqtisodiyotga bugungi kunda qator olimlar tomonidan turlicha talqin qilinsada, ularning zamirida tabiatga nisbatan zararli bo'lgan moddalarning kamayishiga erishish, resurslarni tejash va barqaror iqtisodiy rivojlanish yotadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada yashil iqtisodiyot, uni rivojlantirish bosqichlari, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarning roli hamda tahlil qilishda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihatlarni tadqiq etish bo'yicha xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlarining ilmiy xulosalari hamda mualliflarning amaliy tajribalari asosida mustaqil qarashlar shakllantirildi. Shu bilan birgalikda, mavzuga oid bo'lgan iqtisodiy tahlil, mantiqiylik, ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash va boshqa uslublaridan foydalanildi.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yashil iqtisodiyot — bu iqtisodiy faoliyatning atrof-muhit va ijtimoiy jihatlarga zarar yetkazmasdan, uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan shaklidir. Bu iqtisodiy model tabiiy resurslardan samarali va mas'uliyatli foydalanishni, ekologik toza texnologiyalarni joriy etishni va ijtimoiy tenglikni ta'minlashni nazarda tutadi.

Insoniyat kelgusi o'n yillikda iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning taqchilligi, bioxilma-xillikning yo'qolib ketishi, ijtimoiy tengsizlikning oshib ketishi kabi juda dolzarb muammolarga duch kelishni boshladi. Ushbu tizimli global inqirozlarning barchasi o'zaro bog'liqligi ularni alohida-alohida hal etib bo'lmasligi, shuningdek, an'anaviy iqtisodiy yondashuv ushbu

muammolarning yechimiga qaratilgan ham ekologik, ham ijtimoiy maqsadlarning muvozanatini ta'minlay olmasligi ta'kidlanadi. An'anaviy iqtisodiy yondashuv ortiqcha iste'mol qo'llab-quvvatlanishi, ijtimoiy qamrov sustlashishi hamda tabiiy resurslarning keskin kamayishiga olib kelsa, "yashil" iqtisodiy yondashuv bularni barchasini rad etib, ijtimoiy farovonlikni hamda ekologik barqarorlik muvozanatini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish zaruriyati sifatida bir qancha muhim omillarni keltirib o'tamiz (1-rasm).



1-rasm. Yashil iqtisodiyotga o'tish zaruriyati

Birinchidan, iqlim o'zgarishi va global isish. Bunda, atmosfera haroratining ortishi, muzliklarning erishi va dengiz sathining ko'tarilishi kabi iqlim o'zgarishlari jiddiy ekologik va iqtisodiy xavflarni keltirib chiqaradi. Yashil iqtisodiyotga o'tish iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlarini kamaytirishga yordam beradi.

Ikkinchidan, tabiiy resurslarning cheklanganligi. Bunda, qazilma yoqilg'ilar va boshqa tabiiy resurslar cheklangan. Yashil iqtisodiyot qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish orqali resurslarni tejashga va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashga imkon beradi.

Uchinchidan, atrof-muhitning ifloslanishi. Bunda, havo, suv va tuproqning ifloslanishi inson salomatligiga va biologik xilma-xillikka zarar yetkazadi. Yashil texnologiyalar va toza ishlab chiqarish usullari bu muammolarni hal qilishga yordam beradi.

To'rtinchidan, ijtimoiy va iqtisodiy tenglik. Bunda, yashil iqtisodiyot ijtimoiy tenglikni ta'minlashga intiladi, ish o'rinlarini yaratish, kambag'allikni kamaytirish va ijtimoiy adolatni ta'minlash orqali aholi farovonligini oshiradi.

Beshinchidan, energiya xavfsizligi. Bunda, qayta tiklanadigan energiya manbalari energetik mustaqillikni ta'minlaydi va yoqilg'i narxlarining o'zgarishiga nisbatan kamroq zaiflikni ta'minlaydi.

Oltinchidan, innovatsiyalar va iqtisodiy o'sish. Bunda, yashil iqtisodiyot innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni rivojlantirishga turtki beradi, bu esa yangi sanoatlar va ish o'rinlarini yaratadi, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi.

Yettinchidan, xalqaro majburiyatlar va bitimlar. Bunda, ko'plab davlatlar xalqaro bitimlar va kelishuvlar orqali iqlim o'zgarishi va atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha majburiyatlar olgan. Yashil iqtisodiyotga o'tish bu majburiyatlarni bajarishga yordam beradi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish orqali davlatlar va jamiyatlar barqaror, adolatli va ekologik xavfsiz kelajakni ta'minlashga erishishlari mumkin.

Yashil iqtisodiyot uzoq muddatli istiqbolga ega bo'lib, jamiyatga qiymat yetkazib berish uchun resurslardan foydalanish usullariga e'tibor qaratadi. Bu faqatgina kam uglerodli yoqilg'i manbalari foydalanishgina bo'lmasdan, sayyoramizning ekologik resurslarini hurmat qilgan

holda, bugungi va ertangi kun uchun insoniyatga bo'yluk, barqarorlik va farovonlikni yaratish uchun resurslarning samaradorligi va yetarliligini qanday oshirish mumkinligidir. Bu farovonlikni yaxshilash bilan birga, ekologik xavf va resurslar tanqisligini sezilarli darajada kamaytirishni kafolatlaydigan modeldir.

Yashil iqtisodiyotda ish bilan bandlik va daromadning o'sishi uglerod chiqindilari va ifloslanishini kamaytirish, energiya va resurslar samaradorligini oshirish, shuningdek, biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarining yo'qolishining oldini olish imkonini beruvchi iqtisodiy faoliyat, infratuzilma va aktivlarga davlat va xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali amalga oshiriladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha Dasturi (UNEP) yashil iqtisodiyotni "inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni yaxshilash, shu bilan birga ekologik xavf va ekologik tanqislikni sezilarli darajada kamaytiradigan iqtisodiyot" deb ta'riflagan. Eng sodda ifoda bilan aytganda, yashil iqtisodiyotni uglerod darajasi past, resurslardan tejamkor va ijtimoiy jihatdan qamrab oluvchi iqtisodiyot sifatida tasavvur qilish mumkin.

Bugungi kunda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda banklarning roli oshib bormoqda. Ho'sh, yashil iqtisodiy rivojlanishda banklarning o'rni qanday?

1. Banklar yashil loyihalarni moliyalashtirishga hissa qo'shish orqali yashil iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Qayta tiklanadigan energiya loyihalari, energiya samaradorligi investitsiyalari va chiqindilarni qayta ishlash loyihalari kabi yashil loyihalarni moliyalashtirish banklar portfelida muhim o'ringa ega bo'lib bormoqda. Banklar tegishli kredit mahsulotlari, arzon kreditlar yoki yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus moliyalashtirish shartlarini taklif qilish orqali ushbu loyihalarni amalga oshirishga yordam beradi.

2. Banklar kredit va investitsiya qarorlarida barqarorlik mezonlarini hisobga olgan holda yashil iqtisodiy rivojlanishga yordam beradi. Ular atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirlarni baholaydi va yuqori barqarorlikka ega bo'lgan loyihalarni moliyalashtiradi. Bu atrof-muhitga ta'sirni kamaytiradigan, energiya samaradorligini ta'minlaydigan va toza texnologiyalardan foydalanadigan loyihalarni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi. Ular, shuningdek, barqarorlik mezonlariga javob bermaydigan loyihalarni moliyalashtirishga nisbatan ehtiyotkorlik bilan yondashadi.

3. Banklar atrof-muhit va iqlim o'zgarishi xavfini baholash orqali o'zlarining risklarni boshqarish strategiyalarini belgilaydilar. Yashil iqtisodiy rivojlanish ekologik xavflarni boshqarish va yashil moliyalashtirishni ko'paytirishni talab qiladi. Banklar ekologik risklarni o'zlarining moliyaviy ko'rsatkichlariga ta'sir qiladigan tarzda baholaydilar va bu risklarga qarshi choralar ko'radilar. Shu bilan birga, yashil loyihalar va barqaror investitsiyalarni moliyalashtirish riskni diversifikatsiya qilishi va portfelning diversifikatsiyasiga hissa qo'shishi mumkin.

4. Banklar yashil iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish uchun innovatsiyalar va konsalting xizmatlarini taqdim etadilar. Ular innovatsion moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish orqali yashil loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi. Ular, shuningdek, kompaniyalar va mijozlarga barqarorlik bo'yicha maslahat beradi. Bu atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirlarni baholashda yordam berish, barqarorlik strategiyalarini yaratish va barqarorlik hisobotini o'z ichiga oladi.


Bugungi kunda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda "yashil banklar" (green bank) keng tarqalmoqda. Yashil banklar (green banks) bugungi kunda tezkor rivojlanib borayotgan moliyaviy institutlar hisoblanadi. Yashil banklar tarmog'i global miqyosda tezkor sur'atda rivojlanib bormoqda.

Yashil banklar o'z investitsiya portfellarini kengaytirmoqda va yangi sektorlarga (energetika, sanoat, qurilish va h.k.) kirib bormoqda. Ular faqatgina qayta tiklanuvchan energetika loyihalarini emas, balki resurs samaradorligi, iqlim o'zgarishlariga moslashuv va boshqa yashil sohalarni ham qo'llab-quvvatlamoqda.

Shuningdek, Yashil banklar tomonidan yangi moliyaviy instrumentlar (yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, yashil lizinglar va h.k.) joriy etilmoqda. Bu esa yashil investitsiyalar uchun yangi manbalarni jalb qilishga yordam bermoqda.

Yashil obligatsiyalar barqaror daromadli qimmatli qog'ozlarning o'sib borayotgan toifasi bo'lib, ular atrof-muhitga foyda keltiradigan loyihalar uchun kapital jalb qiladi.


Yashil obligatsiyalar umumiy obligatsiyalar bozorining kichik qismini tashkil qilsa-da, ular ko'proq e'tiborni tortmoqda, chunki emissiyani qisqartirish maqsadlariga erishish uchun davlat va xususiy sektordan trillionlab dollar kapital kerak bo'ladi.



2-rasm. Yashil obligatsiyalar emissiyasi (trln.dollar)

Manba: Climate Bonds initiative: \$500bn Green Issuance 2021: social and sustainable acceleration: Annual green \$1tn in sight: Market expansion forecasts for 2022 and 2025 ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2016-yilda global yashil obligatsiyalar emissiyasi qariyb 82 milliard dollarni tashkil etdi. 2017-yil noyabr oyida birinchi marta yillik 100 milliard dollarlik chegaradan o'tgan. 2020-yil dekabriga kelib, bozor jami 1 trillion AQSH dollari miqdoridagi muhim bosqichdan o'tgan (2-rasm).



3-rasm. Yashil obligatsiyalar emissiya qiluvchi eng yirik davlatlar (mlrd.dollar)

Manba: Climate Bonds initiative: \$500bn Green Issuance 2021: social and sustainable acceleration: Annual green \$1tn in sight: Market expansion forecasts for 2022 and 2025 ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Rivojlangan AQSh va Germaniya mamlakatlari bugungi kunda eng yirik yashil obligatsiyalar emissiya qiluvchi mamlakatlar hisoblanadi. Shuningdek, Xitoy ham yashil obligatsiyalar bozoridagi eng katta o'yinchisi hisoblanadi (3-rasm). 2016-yildan boshlab faol ravishda yashil obligatsiyalar chiqarish va investitsiya jalb qilish bilan shug'ullanmoqda. 2022-yilga kelib Xitoyda chiqarilgan yashil obligatsiyalar hajmi umumiy 300 milliard dollardan oshdi. Yashil obligatsiyalar emissiya qiluvchi asosiy mamlakatlar Yevropa qit'asiga to'g'ri keladi.

Yuqorida qayd etilganidek, "barqaror rivojlanish" konsepsiyasi dunyo mamlakatlarining bosh maqsadiga aylanib bormoqda (Vaxabov, Xajibakiyev, 2020).

Mamlakatimizda mavjud bo'lgan Tijorat banklari bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi qonunlar, O'zbekiston Respublikasining Uy-joy va Yer kodekslari, "Davlat ekologik ekspertizasi to'g'risida"gi nizom, shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy siyosat sohasidagi xalqaro moliya institutlarining tavsiyalariga muvofiq ekologik va ijtimoiy risklarni baholash uchun tegishli majburiy talablarni qamrab olgan siyosatni ishlab chiqishi hamda amaliyotga joriy etishi mumkin.

Mamlakatimizdagi bir nechta banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash tizimi mavjud bo'lib, ular soni ko'payib bormoqda. "O'zbekiston sanoat-qurilish banki" aksiyadorlik tijorat banki, "Ipoteka-bank" aksiyadorlik tijorat ipoteka banki, "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki shular jumlasidandir.

Shuningdek, mamlakatimizdagi mavjud banklarda "yashil kreditlar" ajratilishi boraida ham o'sishlar kuzatilmoqda. Birgina misol, "O'zsanoatqurilishbank" o'z faoliyatida "yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish va xavflarni boshqarish mexanizmlarini joriy qilgan birinchi banklardan biridir. So'nggi uch yilda bankning "yashil" kredit portfeli summasi 567 mln dollarga yetkazilib, 6 763 ta "yashil" ish o'rinlari yaratilgan.

Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son Qarori qabul qilindi. Qaror bilan quyidagi strategik hujjatlar va tizimlar tasdiqlandi:

- strategik maqsadlarga erishishga mo'ljallangan 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash Dasturi;
- sanoat tarmoqlarida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va energiya tejamkorligini ta'minlash bo'yicha Konsepsiya;
- 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash bo'yicha Harakatlar rejasini;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning energiya sig'imi ko'rsatkichini 2026-yilga kelib 2022-yilga nisbatan 20 foizga kamaytirishga qaratilgan 2022-2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida yoqilg'i-energetika resurslarini tejashning Maqsadli parametrlari;
- O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish choralarini muvofiqlashtirish bo'yicha Idoralararo kengash tarkibi yangilandi;
- "Yashil" iqtisodiyotga o'tish va «yashil» o'sish bo'yicha Donorlarning muvofiqlashtirish guruhi tasdiqlandi.

Shuningdek, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligida qo'shimcha 4 ta shtat birligidan iborat Donorlarning muvofiqlashtirish guruhi faoliyatini tashkil qiluvchi, "Yashil" iqtisodiyot Strategiyasi, Dasturi va Harakatlar rejasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda uni Idoralararo kengash bilan o'zaro muvofiqlashtirishga ko'maklash ishchi organi vazifasini bajaruvchi loyiha ofisi Texnik kotibiyati tashkil etildi (IMV, 2022).

Fransiya taraqqiyot agentligi (AFD) bilan hamkorlikda "Yashil" iqtisodiyot bo'yicha davlat siyosati sohasida qarz dasturi amalga oshirildi. Mazkur dastur doirasida AFD tomonidan O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga ko'maklashish ko'zda tutilgan bo'lib,

2022-yil davomida AFD budjet ko'magi mablag'lari hisobidan O'zbekiston Respublikasi budjetiga 150,0 mln. yevro miqdorida kredit mablag'lari o'tkazildi.

Shuningdek, ushbu loyiha doirasida 2023–2025-yillarda amalga oshiriladigan ishlarni moliyalashtirish maqsadida Yevropa Ittifoqining 6,1 mln. yevro grant mablag'lari jalb qilindi.

O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida 6 ta ustuvor vazifalarini belgilaydi:

- tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish;
- milliy iqtisodiyotning tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishiga nisbatan barqarorligini mustahkamlash;
- milliy iqtisodiyot, xususan, sanoatning "yashil" va kam uglerodli rivojlanishini ta'minlash;
- innovatsiyalarni joriy etish va samarali "yashil" investitsiyalarni jalb qilish;
- barqaror va inklyuziv "yashil" urbanizatsiyani rivojlantirish;
- "yashil" iqtisodiyotga o'tish davrida katta ta'sir ostida bo'lishi mumkin bo'lgan aholi va ularning yashash joylarini qo'llab-quvvatlash.

Shu bilan birga, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi topshiriqlar belgilandi:

sanoat tarmoqlarida 3,9 mlrd. metr kub tabiiy gaz, 4 mlrd. kVt/soat elektr energiyasi va 21 ming tonna neft mahsulotlarini tejash orqali energiya sig'imini 20 foizga, shu jumladan 2022-yilda 5 foizga kamaytirish;

bino va inshootlarda energiya samaradorligini 30 foizga oshirish;

har bir tarmoq kesimida resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish va energiya tejamkorligi dasturlarini ishlab chiqish;

chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etishni rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish.

Iqtisodiyot tarmoqlari va faoliyat turlari bo'yicha iqtisodiyotning energiya sarfi (energiya sig'imi) 2026-yilga borib 22 foizga kamaytiriladi (PQ-436, 2022).

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi kunda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish dunyoning barcha mamlakatlarida eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanib ulgurdi.

Mamlakatimizda "yashil" iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish, energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash, "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish lozim.

Banklar yashil iqtisodiyotni rivojlantiribgina qolmasda, ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va ularni boshqarish orqali o'z ta'sirini ko'rsata oladi. Shu sababli, bugungi kunda mavjud barcha tijorat banklarida ESG tizimni yo'lga qo'yish shuningdek kredit oluvchi barcha yuridik shaxslardan ESG talablarini qo'yishi lozim.

Adabiyotlar/ Jumepamypa/ Reference:

Herman (1994), For the Common Good: Redirecting the Economy toward Community, the Environment, and a Sustainable Future 2nd Edn (Beacon Press).

IMV (2022), Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish sohasi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, Hisobot-2022, 3-bet.

Qaror (2022), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarori.

Robert Costanza (2016), Modelling and measuring sustainable wellbeing in connection with the UN Sustainable Development Goals, 2016, 18 page.

Sammit (2023), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BAAning Dubay shahrida bo'lib o'tgan BMTning iqlim o'zgarishiga bag'ishlangan 2023-yilgi sammitidagi nutqidan.

Shtayner (2011), Yashil iqtisodiyot sari: barqaror rivojlanish va qashshoqlikni yo'q qilish yo'llari, UNEP/Grid Arendal, 17-bet.

Suaad Hadi Hassan Al-Taai (2021), Green economy and sustainable development. IOP Conf. Ser.: Earth Environ, 5 page.

Vaxabov A., Xajibakiyev Sh. (2020), "Yashil iqtisodiyot" darslik, Toshkent.: "Universitet", 16-bet.